



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 373 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida)..... | 14 |
| Mavlanov Sobirjon Pardabayevich | |
| Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish | 20 |
| Sattarov Umirzoq | |
| Современные банковские продукты | 24 |
| Хужамуратов Аббос Мардонович | |
| Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi..... | 29 |
| Abdullayeva Sayora Aleksandrovna | |
| Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики..... | 33 |
| Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна | |
| Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi..... | 39 |
| Kabulov Baxram Kuzibaevich | |
| Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni..... | 45 |
| Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li | |
| O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish..... | 51 |
| Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li | |
| Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari..... | 59 |
| Baymirzaev Dilmurod Nematovich | |
| Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030 | 66 |
| Исомов Б. С. | |
| Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati..... | 70 |
| Rajabov Orzujon Mamasoliyevich | |
| Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar | 78 |
| Baykalonov Jalil G'aybulloyevich | |
| Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане..... | 93 |
| Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна | |
| Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения..... | 99 |
| Мансурова Сайёра Бахтияровна | |
| Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli..... | 106 |
| Djumayev Farrux Toshmuratovich | |
| Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт | 111 |
| Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна | |
| The process of developing startups based on management principles | 119 |
| Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li | |
| The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan..... | 126 |
| Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli | |
| Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030 | 134 |
| Исомов Б. С. | |



| | |
|---|-----|
| Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish | 138 |
| Umarov Begzodbek Jaloldinovich | |
| O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari..... | 143 |
| Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich | |
| Davlat - xususiy sheriklik loyihalarning samaradorligini oshirish..... | 150 |
| Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich | |
| O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari..... | 155 |
| Bazarov Zakir Xonqulovich | |
| Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari..... | 160 |
| Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi | |
| Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari | 163 |
| Yuldasheva Madina Tohir Qizi | |
| Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash | 173 |
| Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li | |
| Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия | 179 |
| Кучаров Абдор Сабиржанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи | |
| Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish..... | 187 |
| Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna | |
| Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms..... | 192 |
| Ibragimova Saida Ilkhomovna | |
| Aloqa korxonalarini xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish..... | 197 |
| Tursunova Mastura Taxirovna | |
| Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan | 204 |
| Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li | |
| Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari..... | 208 |
| Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich | |
| Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish..... | 212 |
| Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna | |
| Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан..... | 217 |
| Азимов Кабул | |
| Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024) | 223 |
| Мухамедова Мадинабону Мехридиновна | |
| Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии..... | 230 |
| Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи | |
| Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari..... | 233 |
| Sattorov R. A. | |
| Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari..... | 240 |
| Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li | |
| Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari | 246 |
| Sayfutdinov Bobur Nodirovich | |
| Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari..... | 255 |
| Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li | |



| | |
|---|-----|
| Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari..... | 261 |
| Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich | |
| Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish | 266 |
| Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich | |
| Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalarini faoliyatiga ta'siri | 270 |
| Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o'g'li | |
| Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi..... | 277 |
| Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li | |
| Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari..... | 283 |
| Almosova Shohista Jobirovna | |
| Модели организации казначейства в ведущих стран мира..... | 288 |
| Сагдиев Равшан Сайфуллаевич | |
| Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlarini va rivojlantirish yo'llari..... | 302 |
| B.Sh.Shadmanov | |
| Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati..... | 307 |
| Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi | |
| Yangi O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyoti: qiyosiy tahlilning asosiy tendentsiyalari | 313 |
| Ro'ziyeva Dilfuza Toshmurodovna | |
| Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning muammolari va uni bartaraf etish yo'nalishlari..... | 318 |
| Abduraxmanova Malika Abdujaparovna | |
| Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi qo'shni hududlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlantiruvchi omillari | 323 |
| Sattarov R.A. | |
| Desentralizatsiyalangan ma'lumot almashish protokollari: IPFS, Filecoin va Arweave tahlili | 328 |
| Raimov Ulug'bek Yorqinbek o'g'li | |
| Transport xizmatlari ko'rsatish biznes-jarayonlarini raqamli transformatsiya talablari asosida takomillashtirish..... | 333 |
| Komilov Asror Akmalovich | |
| Empowering the Future: Assessing the Role of Automation, Internet of Things (IoT), and Demand Management in Enhancing Energy Efficiency of Smart Grids..... | 338 |
| Khakimjanova Surayyo Khabibullayevna | |
| Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari (xalqaro va mahalliy misollar) | 345 |
| Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li | |
| Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish | 352 |
| Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi | |
| Mijozlar tajribasini yaxshilashda raqamli integratsiya strategiyalari: "O'zbektelekom" AK tajribasi..... | 358 |
| Islamov Javlon Rasulovich | |
| Tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari..... | 361 |
| Rustamov Sunnatillo Rustamovich | |
| Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish omili sifatida: Yevropa tajribasi..... | 368 |
| Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich | |



YASHIL IQTISODIYOT BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA: YEVROPA TAJRIBASI

Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich

Alfraganus universiteti, ijro intizomi va monitoring bo'limi bosh mutaxassisi,
O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: t_murodjon@mail.ru

ORCID: 0009-0005-3701-3184

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning barqaror rivojlanishdagi o'rni hamda Yevropa davlatlarining mazkur yo'nalishdagi ilg'or tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqining "European Green Deal" strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, energiya samaradorligi, sanoatni dekarbonizatsiya qilish, yashil transport hamda ekologik qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi yutuqlar keng yoritilgan. Statistika tahlillar natijasida 1990–2022-yillar oralig'ida Yevropada issiqxona gazlari chiqindilarining 30 % ga kamaygani, qayta tiklanuvchi energiya ulushining 8,5 % dan 43 % ga oshgani aniqlangan. Germaniya, Shvetsiya, Daniya va Fransiya misolida yashil iqtisodiyot siyosatining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaralari ochib berilgan. O'zbekiston sharoitida Yevropa tajribasini qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinib, qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasini rivojlantirish, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish hamda ekologik ta'limni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, Yevropa Ittifoqi, Green Deal, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, uglerod neytralligi.

Abstract: This article examines the theoretical foundations of the green economy, its role in sustainable development, and analyzes the advanced experience of European countries in this field. The study provides an in-depth review of the European Union's "European Green Deal" strategy, as well as achievements in increasing the share of renewable energy, improving energy efficiency, decarbonizing industry, promoting green transport, and fostering ecological agriculture. Statistical analysis revealed that between 1990–2022, greenhouse gas emissions in Europe decreased by 30 %, while the share of renewable energy increased from 8.5 % to 43 %. Using the cases of Germany, Sweden, Denmark, and France, the article highlights the economic, environmental, and social benefits of green economy policies. Opportunities and prospects for applying the European experience in Uzbekistan are discussed, and scientifically grounded recommendations are proposed for developing renewable energy infrastructure, financing green technologies, and strengthening environmental education.

Key words: green economy, sustainable development, European Union, Green Deal, renewable energy, energy efficiency, carbon neutrality.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические основы зелёной экономики, её роль в обеспечении устойчивого развития, а также проанализирован передовой опыт европейских стран в данной сфере. В исследовании подробно изучена стратегия Европейского союза «European Green Deal», достижения в увеличении доли возобновляемой энергии, повышении энергоэффективности, декарбонизации промышленности, развитии зелёного транспорта и экологического сельского хозяйства. По результатам статистического анализа установлено, что в период 1990–2022 г. выбросы парниковых газов в Европе сократились на 30 %, а доля возобновляемой энергии выросла с 8,5 % до 43 %. На примере Германии, Швеции, Дании и Франции показаны экономические, экологические и социальные эффекты реализации политики зелёной экономики. Проанализированы возможности и перспективы применения европейского опыта в условиях Узбекистана, даны научно обоснованные рекомендации по развитию инфраструктуры возобновляемой энергетики, финансированию зелёных технологий и усилению экологического образования.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, Европейский союз, Green Deal, возобновляемая энергия, энергоэффективность, углеродная нейтральность.



KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda dunyo iqtisodiyoti global ekologik muammolar, resurs tanqisligi va iqlim o'zgarishi kabi jiddiy chaqiriqlar bilan yuzma-yuz keldi. Ushbu holat an'anaviy iqtisodiy o'sish modelidan voz kechib, ekologik barqarorlik hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan yangi iqtisodiy paradigmalarga o'tishni talab qilmoqda. Shunday konsepsiyalardan biri — yashil iqtisodiyot bo'lib, u iqtisodiy o'sish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan.

BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot — “aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga, ekologik xavf va resurs tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyotdir”. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bilan bevosita bog'liq bo'lib, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va uglerod izini qisqartirishni o'z ichiga oladi.

Yevropa mamlakatlari yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga joriy etishda yetakchi o'rin tutadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining “Yashil kelishuv” (European Green Deal) strategiyasi 2050-yilga borib uglerod neytrallikka erishishni maqsad qiladi. Mazkur jarayonda Yevropa tajribasi boshqa davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham muhim o'rnak bo'la oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yevropa Ittifoqining yashil iqtisodiyot bo'yicha asosiy strategik hujjatlaridan biri — “The European Green Deal” (European Commission, 2019) — 2050-yilga qadar uglerod neytrallikka erishish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mazkur hujjat Yevropa mamlakatlarida ekologik barqarorlikni ta'minlashda yo'l xaritasi sifatida xizmat qilmoqda [1].

Yevropa Ittifoqining rasmiy statistika xizmati ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 20 yil ichida Yevropa Ittifoqida qayta tiklanuvchi energiya ulushi ikki baravardan ko'proq oshdi va 2023-yilda umumiy energiya iste'molining qariyb 23 % ini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich Yevropada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining real natijalarini tasdiqlaydi [2].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan taqdim etilgan Green Growth Indicators to'plamida yashil o'sishning iqtisodiy va ekologik indikatorlari tizimlashtirilgan bo'lib, unda Yevropa mamlakatlarining chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik innovatsiyalar sohasidagi yutuqlari tahlil qilingan [3].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyot taraqqiyotini o'lchash uchun Green Economy Progress Measurement Framework metodologiyasini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuv yordamida mamlakatlar ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilinadi. Yevropa mamlakatlari mazkur indeksda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda [4].

Yevropa atrof-muhit agentligining Trends and Projections in Europe 2022 hisobotida Yevropa Ittifoqi 1990–2022-yillar oralig'ida issiqxona gazlari chiqindilarini 30 % ga kamaytirgani qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich global iqlim kelishuvlarida belgilangan maqsadlar bilan uyg'un keladi [6].

Mahalliy manbalardan, A. Qodirov o'zining Yashil iqtisodiyot asoslari kitobida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari va Yevropa tajribasini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Shuningdek, Xolmurodov va Tursunova o'zlarining “Yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya: Yevropa tajribasi va O'zbekiston istiqbollari” nomli maqolasida Yevropa mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi yutuqlar va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'llari tahlil qilingan [10].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqida yashil iqtisodiyot siyosati uzluksiz, tizimli va maqsadli tarzda olib borilmoqda. Statistik manbalar, strategik hujjatlar va ilmiy izlanishlar ushbu sohada erishilgan yutuqlarni hamda global darajadagi yetakchilikni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur tajriba rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot metodologiyasi mavzuning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini kompleks yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, Yevropa mamlakatlari tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqish jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, statistik tahlil hamda ssenariy tahlili kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Ushbu jarayonda ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar va qonunchilik hujjatlari o'rganildi, Yevropa mamlakatlari tajribasi o'zaro hamda O'zbekiston sharoiti bilan qiyoslandi, Eurostat va OECD ma'lumotlari asosida energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi




energiya ulushi va chiqindilar hajmi tahlil qilindi, shuningdek, yashil siyosatni davom ettirish yoki sustlashtirish holatlarining natijalari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqi 2019-yilda “European Green Deal” strategiyasini qabul qilib, 2050-yilgacha uglerod neytrallikka erishishni asosiy maqsad sifatida belgiladi. Mazkur strategiya Yevropa iqtisodiyotining barcha sohalarini qamrab olib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bilan birga iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. 2023-yilda Yevropa Ittifoqi bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya ulushi 43 % ga yetgan bo'lib, bu jarayonda shamol, quyosh, biomassa hamda gidroenergetika asosiy manbalar sifatida rivojlanmoqda (1-rasm).




1-rasm.



2-rasm.

Yevropa Ittifoqi 2030-yilgacha umumiy energiya samaradorligini 32,5 % ga oshirish maqsadini belgilab, ushbu jarayonni energiya tejamkor qurilish, modernizatsiya qilingan sanoat uskunalari va aqlli tarmoqlar orqali amalga oshirmoqda. Sanoatni dekarbonizatsiya qilish doirasida temirchilik, kimyo va tsement sanoatlarida chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari joriy etilmoqda. Yashil transportni rivojlantirish yo'nalishida elektromobillar ulushini oshirish, temir yo'l va velosiped infratuzilmasini kengaytirish hamda aviatsiyada past uglerodli yoqilg'iga o'tish ishlari olib borilmoqda. Qishloq xo'jaligi sohasida esa “Farm to Fork” tashabbusi doirasida pestitsidlar va kimyoviy o'g'itlardan foydalanishni qisqartirish, shuningdek organik mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish choralari ko'rilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar natijasida Yevropada yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham sezilarli samara bermoqda — 2023-yilda yashil texnologiyalar sohasida 5,4 million yangi ish o'ri yaratilgan bo'lsa, 2022-yilda qayta tiklanuvchi energiyaga kiritilgan investitsiyalar 320 milliard yevroni tashkil etgan (2-rasm va 3-rasm).



3-rasm.

Energiya importiga qaramlik sezilarli darajada kamaydi, bu esa energiya xavfsizligini mustahkamladi.

Bu jarayonlar Yevropada yangi bozor segmentlari, innovatsion mahsulotlar va eksport imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi.

Ekologik jihatdan, Yevropa Ittifoqi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishib, 1990–2022-yillar oralig'ida issiqxona gazlari chiqindilarini 30 % ga kamaytirdi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2004-yildagi 8,5 % dan 2023-yilda 43 % ga oshdi, havo ifloslanishining asosiy ko'rsatkichi (PM2.5) esa 2000-yildan buyon 40 % ga qisqardi. Ushbu natijalar energiya sohasidagi innovatsiyalar, qat'iy ekologik qonunchilik va aholining ekologik ongining oshishi bilan bevosita bog'liqdir.

Yevropa mamlakatlari turli strategiyalar orqali yashil iqtisodiyot maqsadlariga erishmoqda. Jumladan, Germaniya "Energiewende" dasturi doirasida 2030-yilgacha elektr energiyasining 80 % ini qayta tiklanuvchi manbalardan olishni rejalashtirib, shamol va quyosh energiyasiga yirik investitsiyalar kiritmoqda. Shvetsiya 2045-yilgacha uglerod neytrallikka erishishni maqsad qilib, ushbu jarayonda biomassa va gidroenergetikani asosiy yo'nalish sifatida rivojlantirmoqda. Daniya shamol energetikasida Yevropada yetakchi bo'lib, elektr energiyasining 55 % ini shamoldan oladi hamda 2030-yilgacha bu ko'rsatkichni 100 % ga yetkazishni rejalashtirmoqda. Fransiya esa atom va quyosh energiyasi kombinatsiyasidan foydalanish orqali energiya xavfsizligini ta'minlash hamda chiqindilarni kamaytirishga intilmoqda (4-rasm).

| Mamlakat | Asosiy energiya manbalari | Uglerod neytrallik maqsadi, yil | Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) |
|-----------|---------------------------|---------------------------------|---------------------------------------|
| Germaniya | Shamol, quyosh | 2050 | 46 |
| Shvetsiya | Biomassa, gidro | 2045 | 60 |
| Daniya | Shamol | 2050 | 55 |
| Fransiya | Atom, quyosh | 2050 | 27 |

4-rasm. "Yevropa mamlakatlarida yashil iqtisodiyot strategiyalarining asosiy yo'nalishlari"

Bu tajribalar Yevropa mamlakatlarining turli tabiiy resurslar va texnologik imkoniyatlardan foydalangan holda umumiy yashil iqtisodiy maqsadlarga erisha olayotganini ko'rsatib, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlashini tasdiqlaydi. Biroq, yuqori boshlang'ich investitsiya talabi, energiya narxining qisqa muddatda oshishi va ayrim sanoat tarmoqlarida ish o'rinlarining qisqarishi kabi muammolar ham mavjud. O'zbekiston uchun ushbu tajribadan kelib chiqadigan ustuvor yo'nalishlar sifatida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, yashil texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq xo'jaligida ekologik standartlarni kuchaytirish hamda yashil transportni rivojlantirish orqali havo sifatini yaxshilash belgilanishi mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ekologik xavflarni kamaytirish, balki iqtisodiy o'sish sifatini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Yevropa Ittifoqining "Green Deal" strategiyasi ushbu yondashuvning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur strategiya doirasida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, chiqindilar hajmini kamaytirish va uglerod neytralligiga erishish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Natijada, Yevropa Ittifoqida so'nggi o'n yillik davomida issiqxona gazlari chiqindilari sezilarli darajada qisqargan, yashil texnologiyalar bozori hajmi hamda ushbu sohada yaratilgan ish o'rinlari soni barqaror o'sib bormoqda.

O'zbekiston uchun ushbu tajriba bir qator muhim saboqlarni beradi. Avvalo, qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasini kengaytirish — xususan, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishini jadallashtirish — nafaqat energetika xavfsizligini ta'minlaydi, balki import energiya resurslariga qaramlikni kamaytiradi. Ikkinchidan, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan soliq imtiyozlari, "yashil obligatsiyalar" emissiyasi va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish innovatsion loyihalar uchun zarur moliyaviy asos yaratadi.

Bundan tashqari, ekologik ta'lim va madaniyatni oshirish O'zbekiston aholisi hamda biznes subyektlari orasida yashil iqtisodiyot g'oyalari keng targ'ib qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yevropa tajribasida aholining ekologik ongini yuksaltirish siyosiy va iqtisodiy islohotlar qatorida ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Shu bois, ekologik mas'uliyat va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish barqaror rivojlanish yo'lida eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa tajribasi O'zbekiston uchun nafaqat siyosiy-huquqiy, balki texnologik va moliyaviy jihatdan ham amaliy yo'l xaritasi bo'la oladi. Agar mamlakat ushbu yo'nalishda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirsa, kelgusi o'n yilliklarda barqaror iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro miqyosda raqobatbardosh "yashil iqtisodiyot" modeliga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. European Commission. The European Green Deal. Brussels: European Union, 2019.
2. Eurostat. Renewable Energy Statistics. Luxembourg: European Commission, 2023.
3. OECD. Green Growth Indicators 2021. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2021.
4. UNEP. Green Economy Progress Measurement Framework. Nairobi: United Nations Environment Programme, 2022.
5. World Bank. World Development Indicators. Washington, DC: The World Bank Group, 2023.
6. European Environment Agency. Trends and Projections in Europe 2022. Copenhagen: EEA, 2022.
7. Sachs, J. D., Schmidt-Traub, G., Kroll, C., Lafortune, G., & Fuller, G. Sustainable Development Report 2022. Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
8. Kuznetsova, O., & Pavlova, I. Green Economy as a Factor of Sustainable Development: EU Experience. Journal of Environmental Management and Economics, 2021, 12(3), 45–58.
9. Qodirov, A. Yashil iqtisodiyot asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2023.
10. Xolmurodov, S., & Tursunova, D. Yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya: Yevropa tajribasi va O'zbekiston istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022, (4), 17–28.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
